



Ertaqlar - yaxshilikka yetaklar


OLTIN TARVUZ




ZIYO NASHR




Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir kambag‘al dehqon bo‘lgan ekan. Uning atigi bir tanobgina yeri bor ekan. Dehqon shu yerda kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilib kun ko‘rar ekan. Bahor kelib qolibdi. Dehqon yer hayday boshlabdi. Yerni ikki marta haydab bo‘lib, yaqinidagi katta soyning bo‘yida salqinlab o‘tirsa, osmonda uchib ketayotgan bir laylak qulab tushibdi. Dehqon qarasa, laylakning qanoti singan ekan. Dehqon haligi laylakni darrov uyiga olib borib, singan qanotiga taxtakach bog‘lab, bir qancha vaqt uni boqibdi. Laylak sog‘ayib, uchib ketibdi.






Bir kuni dehqon chigit ekib yursa, bir laylak pastlab uchib o'tibdi. Dehqon esa e'tibor bermay chigitni ekaveribdi. Biroq laylak yana pastlab o'tibdi. Shu o'tishda uch dona tarvuz urug'i tashlab ketibdi.



Bir necha kundan keyin chigit bilan baravar tarvuz urug'i ham unib chiqibdi. Ekinni vaqtida o'tabdi, sug'oribdi, chopibdi. Shunday qilib, hosilni yig'adigan payt ham kelibdi. Bir kuni tarvuzdan uchtasini uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan. Dehqon o'zining yaqin qarindoshlarini va oshna-og'aynilarini mehmonga chaqiribdi. Bir mahal tarvuzga pichoq ursa, pichoq sira botmas emish. Uni qo'yib, ikkinchisini so'ymoqchi bo'libdi, pichoq o'tmabdi, uchinchisi ham shunday bo'libdi. Dehqon ham, mehmonlar ham hayron bo'lishibdi. Yorib qarasar, ichi to'la tilla emish. Qolgan ikkitasini ham yorib







ko'rishibdi. Ularning ichi ham tillaga to'la emish. Kambag'al dehqon sevinib ketib, hammasini mehmonlarga ulashibdi, ular ham xursand bo'lib, uy-uylariga tarqabdilar. Uch tup palakning har biri o'ntadan tarvuz solgan ekan. Dehqon qolgan tarvuzlarni ham yig'ib olibdi. Shunday qilib, kambag'al dehqon juda boyib ketibdi.

Uning bir boy qo'shnisi bor ekan. U haligi kambag'al dehqondan: „Sen qanday qilib boyiding?“ deb so'rabdi.


Dehqon bo'lgan voqeani aytib beribdi:


– Erta bahordan yer haydashga kirishdim. Bir kun charchab, soy bo'yida salqinlab o'tirsam, osmonda uchib ketayotgan bir laylak birdan qulab tushdi. Qarasam, bir qanoti singan ekan. Rahmim kelib, ko'tarib uyga olib keldim. Qanotini taxtakach bilan bog'lab, dori-darmon bilan parvarish qildim, boqdim. Laylak bir necha kundan keyin tamom sog'ayib, uchib ketdi. Kunlardan bir kun yer haydab bo'lib, chigit ekib yursam, haligi laylak tepamdan uchib o'tdi. E'tibor bermay ishimni

qilaverdim. Birozdan keyin laylak orqasiga qaytdi. Qaytishda pastlab uchib, yerga uch dona tarvuz urug'i tashlab o'tdi. U urug'lar unib chiqdi. Uni g'o'zalarim bilan baravar parvarish qilaverdim. Tarvuzlarni so'ysam, ichi to'la tilla ekan. Shunday qilib, boyib ketdim“, – debdi.

Buni eshitgan boy:

„Zora men ham shunday oltinlarni qo'lga kiritsam“, deb soyga borib turibdi. Bir vaqt boy nariroqda bir laylakni ko'rib qolibdi. Sekin









borib, poylab turib laylakning oyog'iga tayoq otibdi. Laylakning oyog'i sinib, ucholmay qolibdi. Boy darrov uni tutib, uyiga olib kelibdi, oyog'iga taxtakach bog'lab, parvarish qilibdi. Bir necha kundan keyin, laylakning oyog'i tuzalib, uchib ketibdi. Boy har kuni dalaga





borib, laylamlarning uchib kelishini kutibdi. Kunlarning birida bitta laylak uning tepasidan o'ta turib, ikki dona urug' tashlab ketibdi. Boy urug'ni darhol yerga qadabdi. Urug' ko'karib chiqib, tarvuz solibdi. Tarvuz pishishi bilan boy hamma qarindosh-urug'ini mehmonga chaqiribdi. Tarvuzga pichoq urgan zamon ichidan katta-katta arilar chiqib, o'tirganlarni talay boshlabdi. Boy tura solib ularni haydamoqchi bo'lganda, arilar uni boshi demay, yuzi demay chaqib tash-





layveribdi. Oradan sal o'tgach, boyning kallasi, burni, lablari shishib ketibdi. Buning alamiga chidolmay, oxiri o'zini suvga tashlab, suvga g'arq bo'libdi.

Kambag'al dehqon halollik bilan murodiga yetibdi, ochko'z boy esa o'z qilmishiga yarasha jazosini olibdi



E 83 **Oltin tarvuz.** [Matn]: ertak. / – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 16 b.

ISBN 978-9943-6443-4-2

UO'K: 821.512.133-343.4
KBK 83.8

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar

OLTIN TARVUZ

Ertak

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi


*Abdurahmon Jo'rayev
Nasiba Ergasheva
Malika Kamolova
Surayyo Sunnatullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
30.08.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108^{1/16}.
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 0,10. Adadi 30 000. Shartnoma № 185–20
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

Ertaqlar - yaxshilikka yetaklar

OLTIN TARVUZ



ZIYO NASHR



fb.com/ziyo.nashr
ziyonashr@mail.ru



UcharGilam
ONLINE DO'KON



YANGI

KITOBLARIMIZNI
INTERNET ORQALI

ONLAYN

XARID

QILISH UCHUN

QR-KODNI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-6443-4-2



9 789943 644342